

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибатуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida qishloq xo'jaligida aktivlarni hisobga olishni takomillashtirish

Egamberdiyeva Salima Rayimovna, Samadova Marjona Feruzbek qizi

Совершенствование учета активов в сельском хозяйстве в условиях цифровизации ЭКОНОМИКИ

Эгамбердиева Салима Раимовна, Самадова Маржона Ферузбек кизи

Improvement of asset accounting in agriculture in the context of digitalization of the economy

Egamberdieva Salima Raimovna, Samadova Marjona Feruzbek kizi

Received: May 15, 2025 Revised: May 16, 2025 ■ Accepted: May 19, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya:** Ushbu maqolada Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga asosan qishloq xo'jaligi korxonalari buxgalteriya balansida aktivlarning tarkibi bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Buxgalteriya balansida asosiy vositalarni turlari (klasslari) bo'yicha detallashtirish, investitsiyaviy mulklar kabi moddalarni kiritish taklif etilgan. Maqolada qishloq xo'jaligida aktivlar hisobining tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar asoslangan.
- **Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligi hosili, tirik hayvon, o'simlik, biologik aktiv, o'stirishdagi hayvonlar, dehqonchilik hosili, chorvachilik mahsuloti 16-son BHXS (IAS) "Asosiy vositalar", 17-son BHXS "Ijara" (IAS) "Ijara", 38-son BHXS (IAS) "Nomoddiy aktivlar", 40-son BHXS (IAS) "Investitsion mulk", 41-son BHXS "Qishloq xo'jaligi".
- **Аннотация:** В статье разрабатываются предложения по составу активов баланса сельскохозяйственных предприятий на основе международных стандартов бухгалтерского учета и финансовой отчетности. Предлагается детализировать в балансе основные средства по видам (классам), включая такие позиции, как инвестиционная недвижимость. В статье представлены предложения по совершенствованию организационно-методических аспектов учета основных средств в сельском хозяйстве.
- **Ключевые слова:** сельскохозяйственная продукция, живые животные, растения биологический актив, скот, урожай, продукция животноводства МСФО (IAS) 16 «Основные средства», МСФО (IAS) 17 «Аренда» (МСФО) «Аренда», МСФО (IAS) 38 «Нематериальные активы», МСФО (IAS) 40 «Инвестиционная недвижимость», МСФО (IAS) 41 «Сельскохозяйственная деятельность».
- **Abstract:** The article develops proposals on the composition of balance sheet assets of agricultural enterprises based on international accounting and financial reporting standards. It is proposed to detail fixed assets in the balance sheet by type (class), including such items as investment property. The article presents proposals for improving the organizational and methodological aspects of accounting for fixed assets in agriculture.

- **Keywords:** agricultural products, live animals, plants. biological asset, livestock, crop, livestock products IAS 16 Property, Plant and Equipment, IAS 17 Leases (IFRS) Leases, IAS 38 Intangible Assets, IAS 40 Investment Property, IAS 41 Agricultural Activity.

KIRISH

Buxgalteriya hisobi oldida turgan muhim vazifalardan biri bu korxonalarda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonlari to'g'risida real va batafsil axborotlarni shakllantirish, ularni foydalanuvchilar, avvalambor, investorlarga o'z vaqtida yetkazib berishdir.

Ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Bu o'z vaqtida mahsulotni yetishtiruvchi subyektlar, xususan, qishloq xo'jaligida biologik aktivlardan olinadigan hosilni o'z vaqtida hisob-kitobini xalqaro standartlar asosida yuritish va muhim hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, hozirgi sharoit qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan korxonalar faoliyatini rivojlantirish, ularda hisob va hisobot ishlarini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Amaldagi buxgalteriya hisobiga oid milliy standartlarda qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan korxonalar faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqib hisobni yuritish tartiblari aniq belgilanmagan. Bu esa mazkur mavzuda tadqiqotlar olib borilishini taqozo etadi hamda qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan korxonalarlarning aktivlarni xalqaro standartlar asosida tasniflash, ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Aktivlar hisobini turli iqtisodiy va ijtimoiy maktablar hamda ilmiy yo'nalishlar, shu jumladan, hisob va audit sohasi vakillari tomonidan ham tadqiq etilgan. Xususan, aktivlar hisobi Robert C., Recket M. [1], B. Boronov [2], Averchev I.A., [3] Anthony, Robert Newton [4], Libby Robert [5] kabi xorijiy olimlar tadqiqotining predmeti bo'lgan.

Ammo K.Makkonnell, S.Bryu [6], S.Fisher, R.Dornbush, R.Shmalenzilar [7] kapitalni barcha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida qo'llaniladigan moddiy vositalardan, ya'ni mashinalar, asbob-uskunalar, inshootlar, zavod-fabrikalar, omborlar, transport vositalari kabilardan iborat, deb tovar va pulni bunga kiritmaydilar.

Mamlakatimiz olimlaridan SH.Shodmonov, R.Alimov, T.Jo'rayevlar G'arb olimlarining ayrimlari tomonidan kapitalni bir tomonlama, ya'ni uning qiymat tarafini e'tiborga olganliklari, boshqalari esa iqtisodiy tushunchalarning tarixiylikini e'tibordan chetda qoldirib, uning moddiy obekti, narsa va hodisalarning ashyoviy tomonini ko'rsatganliklari va

shuning uchun kapital doimiy, o'zgarmas tushuncha, deb e'tirof etganliklarini ta'kidlab, kapital mazmunini quyidagicha bayon qilishgan: «Biz bu ikki xil tushunchani bir tanganing ikki tomoni, bir tushunchaning, ya'ni kapital tushunchasining ikki tomoni: uning bir tomoni moddiy va ashyoviy kurinishi, ikkinchi tomoni esa uning qiymat ko'rinishi ekanligini e'tiborga olamiz va uni bozor iqtisodiyoti sharoitida kapital deb ishlatamiz» [8].

Hozirgi kunda iqtisodchi olimlar o'rtasida munozaraga sabab bo'layotgan masalalardan biri - kapitalni iqtisodiy kategoriya emas, balki buxgalteriya hisobi kategoriyasi sifatida e'tirof etish lozimligidir. Bizningcha, bunday munozaraga o'rin bermaslik lozim. Chunki kapital, avvalambor, iqtisodiy kategoriya sifatida barcha iqtisodiy fanlarning asosi bo'lib hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi ham iqtisodiy fan sifatida iqtisodiy tushuncha va qonuniyatlarni o'z maqsadi va vazifalari doirasida tadqiq etadi. Kapital tushunchasi buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan ham o'rganilishi tabiiydir.

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Qishloq xo'jaligida aktivlarni standartlar asosida tasniflash, ular hisobini takomillashtirish, xalqaro standartlar talablari asosida ularning hisobotlarini tuzish, buxgalteriya yozuvlarining aniq va to'liqligi va o'z vaqtida ishonchli moliyaviy ma'lumotlarni tayyorlash maqsadida qabul qilingan tashkiliy tadbirlar, usullar va amallarni bajarish masalalarini tadqiq qilish jarayonida miqdor va sifat, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez mantiqiy tahlil kabi uslublardan va yondoshuvlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ayrim manbalarda kapitalni ta'sischi tomonidan qo'yilgan ulushlar majmuasi va korxona tomonidan jamg'arilgan foyda deb qaralgan [9].

Нидлз Б., Андерсон Х., Колдуэл Д. larning fikricha, kapital - mulkdorning ixtiyoridagi moddiy va nomoddiy shakldagi mablag'lar va pul mablag'lari kabi iqtisodiy resurslardir [10]. Ushbu mulohazalar kapitalning iqtisodiy kategoriyasi ekanligini to'liq yoritmaydi. Balki bu ta'riflar kapital mohiyatini buxgalteriya hisobi kategoriyasi sifatida ochib beradi, xolos. Xalqaro standartlar muvofiq buxgalteriya balansini takomillashtirishda dastavval aktivlarning umum tan olingan tasnifini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1-son BHXS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" talablariga muvofiq ravishda korxonalarda, jumladan qishloq xo'jalik korxonalarida aktivlarning quyidagi tasnifidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi 1-2 rasmlar.

Ushbu tasnif asosida amaldagi buxgalteriya balansining shaklida ma'lum bir o'zgartirishlarni kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu o'zgartirishlarning bir qancha zaruriyati mavjud.

UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR	
Amaldagi buxgalteriya hisobidagi	Tavsiya etilayotgan variant
-Asosiy vositalar; -Moliyalanadigan lizing shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vosita; -Nomoddiy aktivlar; -Uzoq muddatli investitsiyalar; -O'rnatish jixozlari -kapital qo'yilmalar; -Uzoq muddatli debitor qarzlari.	-Asosiy vositalar -Moliyalanadigan lizing shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vosita; -Biologik aktivlar (uzoq muddatli); -Nomoddiy aktivlar; -Uzoq muddatli investitsiyalar ; -kapital qo'yilmalar; -Investitsiyaviy mulk;

1-rasm. Korxona uzoq muddatli aktivlarning xalqaro standartlarga muvofiq tasnifi

QISQA MUDDATLI AKTIVLAR		
Amaldagi buxgalteriya hisobi bo'yicha	Tavsiya etilayotgan variant (moliyaviy hisobotning standartlariga asosan)	variant xalqaro
-Materiallar; -Yetkazib berish va boquvdagi xayvonlar; -Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari; -O'zi ishlab chiqargan yarim tayyor mahsulotlar; -Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari; -Umumishlab chiqarish xarajatlari; -Ishlab chiqarishdagi yaroqsizlik; -Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar; -Tayyor mahsulotlar; -Tovarlar; -Kelgusi davr xarajatlari va muddati kechiktirilgan xarajatlar; -Qisqa muddatli debitor qarzlari; -Pul mablag'lari; -Pul ekvivalentlari -Qisqa muddatli investitsiya.	-Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari; -O'zi ishlab chiqargan yarim tayyor mahsulotlar; -Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari; -Ishlab chiqarishdagi yaroqsizlik; -Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar; -Tayyor mahsulotlar; -Tovarlar; -Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar -Qisqa muddatli investitsiyalar; -Biologik aktivlar (qisqa muddatli); -Savdo va boshqa debitorlik qarzlari; -Pul mablag'lari va pul ekvivalentlari; -Boshqa moliyaviy aktivlar; -Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar.	

2-rasm. Korxona qisqa muddatli aktivlarning xalqaro standartlarga muvofiq tasnifi [4]

Birinchidan, qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy tashqi axborotdan foydalanuvchilarga ushbu tashkilotning a'zolari, homiylik va boshqa moliyaviy yordamlarni amalga oshirgan shaxslar, banklar, auditorlik tashkilotlari, davlat soliq organlari va boshqa axborot foydalanuvchilarni kiritish mumkin. Ushbu axborot foydalanuvchilar uchun qarorlar qabul qilishlari uchun qishloq xo'jalik korxonalarining mulki to'g'risida nafaqat umumiy ma'lumotlar, balki ularning tarkibiy qismlari bo'yicha ham ma'lumotlar kerak bo'ladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining aktivlari tarkibiga kiruvchi biologik aktivlar va investitsion mulklarning holati to'g'risidagi axborotlar ham foydali hisoblanadi. Bu axborotlar ularning moliyaviy holatini kengroq tavsiflaydi. Ushbu tasnif asosida amaldagi buxgalteriya balansining shaklida ma'lum bir o'zgartirishlarni kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu o'zgartirishlarning bir qancha zaruriyati mavjud. Ikkinchidan, 1-son BHXS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" standartining 78-bandida asosiy vositalar 16-son BHXS

“Asosiy vositalar” standartiga muvofiq turlari (klasslari) bo'yicha detallashtirilishi lozim- ligi ko'rsatilgan. Bu xalqaro standartning talabidir. Bugun mamlakatimizda xalqaro standartlarga o'tish joriy qilinayotgan ekan, demak biz barcha sohada, xususan, qishloq xo'jaligida ham buxgalteriya hisobi tarkibini ham takomillashtirishimiz lozim.

Uchinchidan, asosiy vositalarning 16-son BHXS “Asosiy vositalar” standartida keltirilgan turlari (klasslari) bo'yicha axborotlar, albatta, to'g'ridan to'g'ri moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda (buxgalteriya balansida) yoki hisobotlarga beriladigan ochiqloqlashlarda aks ettirish shart ekanligi qayd qilingan.

To'rtinchidan, amaldagi buxgalteriya balansida ayrim moddalar kiritilmagan. Masalan, investitsiyaviy mulklar, biologik aktivlar va boshqalar. Sotishga mo'ljallangan deb taniflangan uzoq muddatli aktivlar uzoq muddatli aktivlar tarkibida aks ettirilmasligi lozim, deb o'ylaymiz. Xususan, sotish uchun mo'ljallangan katta yoshdagi hayvonlar ham uzoq muddatli aktivlar tarkibida aks ettirilmasligi lozim deb hisoblaymiz.

Ushbu jihatlarni hisobga olgan holda xalqaro standartlar talablariga javob beradigan buxgalteriya schyotlari va balansda uzoq muddatli aktivlarni aks ettirish tartibini quyidagi jadvalda keltiramiz (1-jadval).

1-jadval

Xalqaro standartlar asosida korxonalarda ayrim aktivlar hisobini yuritish uchun tavsiya etilayotgan schyotlar tizimlari [3]

AKTIVNING TURI	KODLARI	AMALDAGI BUXGALTERIYA SCHYOTLAR REJASINING SHAKLIDA AKTIVLARNING TARKIBI	AKTIVNING TURI	KODLARI	TADQIQOTLAR ASOSIDA TAKLIF QILINGAN SHAKLIDA AKTIVLARNING TARKIBI
Asosiy vositalar 0100	110	Yer	Asosiy vositalar	110	Yer
	111	Yerni obodonlashtirish		111	Obodonlashtirilgan yer
		Moliyalanadigan lizing shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni o'zlashtirish			Moliyalanadigan lizing shartnomasi bo'yicha olingan va o'zlashtirilgan asosiy vositalar
	112			112	
	120	Binolar, inshootlar va uzatkich moslamalar		120	Binolar, inshootlar va uzatkich moslamalar
	130	Mashina va uskunalar		130	Mashina va uskunalar
	140	Mebel va ofis jihozlari		140	Mebel va ofis jihozlari
	150	Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi		150	Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi
	160	Transport vositalari		160	Transport vositalari
	170	Ish hayvonlari		190	Boshqa asosiy vositalar
	171	Mahsuldor hayvonlar		191	Konservatsiya qilingan asosiy vositalar
	180	Ko'p yillik ekinlar		-	-
	190	Boshqa asosiy vositalar		-	-
	199	Konservatsiya qilingan asosiy vositalar		-	-
Biologik aktivlar 0192			Biologik aktivlar 0192	0192/01	Ish hayvonlari
				0192/02	Mahsuldor hayvonlar
				0192/03	Ko'p yillik ekinlar

KAPITAL QO'YILMALAR	810	Tugallanmagan qurilish	KAPITAL INVESTISIYALARNI HISOBGA OLUVCHI SCHYOTLAR	800	Kapital investitsiyalar
	820	Asosiy vositalarni sotib olish		810 Kapital qurilish, kengaytirish, rekonstruksiya qilish va ularga kiritilgan kapital investitsiyalar	
	830	Nomoddiy aktivlarni sotib olish			
	840	Asosiy podani shakllantirish			
	850	Yerni obodonlashtirishga kapital qo'yilmalar		820	Uzoq muddatli aktivlarni sotib olish
	860	Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarga kapital qo'yilmalar		830	Nomoddiy aktivlarni zamonaviylashtirish va unga kiritilgan kapital investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar
	890	Boshqa kapital qo'yilmalar		840	Biologik aktivlarni zamonaviylashtirish va unga kiritilgan kapital investitsiyalar
				841	Ishchi hayvonlarni parvarishlashga kapital investitsiyalar
				842	Mahsuldor hayvonlarni parvarishlashga kapital investitsiyalar
				843	Ishchi hayvonlarni sotib olishga kapital investitsiyalar
				844	Mahsuldor hayvonlarni sotib olishga kapital investitsiyalar
					Ko'p yillik daraxtlarni parvarishlash xarajatlari
				850	Yerni obodonlashtirish va unga kiritilgan kapital investitsiyalar
				860	Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha asosiy vositalarni xarid qilish va ularga kiritilgan kapital investitsiyalar
				890	Boshqa kapital nvestitsiyalar

Amaldagi 21-son BHMSda bugungi kunda qishloq xo'jalik sohasida tez rivojlanayotgan intensiv bog'lar, chunonchi, olmozorlar, yong'oqzorlar, uzumzorlar va bosh qa turdagi mevalorlar hamda ularga kiritilgan investitsiyalar hisobi uchun maxsus schyotlar mavjud emas. Xalqaro miqyosda biologik aktivlarning bir turi sifatida tan olingan ushbu ko'p yillik o'simliklarni respublikamizda ko'paytirishning davlat tomonidan ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi, dehqonchilikning ushbu turlarini jadal rivojlantirishning muhim ahamiyatga molikligi, tabiiy ravishda, mazkur sohalarni modernizatsiyalash jarayonlari hamda ularga kiritilayotgan investitsiyalar hisobi uchun maxsus schyotlar ochish hamda yuritishni taqozo etadi.

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, amaldagi buxgalteriya hisobi schyotlar rejasida ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik daraxtlar asosiy vositalar tarkibiga kiritilgan, xalqaro standartlar talablariga ko'ra esa bular biologik aktivlarga

kiritilgan. Biz taktif etayotgan schyotlar rejasida ham mazkur talablardan kelib chiqib ishlab chiqildi. Bundan tashqari, kapital investitsiyalar tarkibida ham biologik aktivlarni shakllantirish bilan bog'liq xarajatlarni aks ettiruvchi schyotlar tavsifiya etildi.

Uzoq muddatli aktivlar korxona faoliyatida ishtirok etadigan muhim iqtisodiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida mazkur iqtisodiy kategoriya yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Shuning uchun uning toifalarini aniqlovchi asosiy tavsiflarni har tomonlama ko'rib chiqish zarur.

Ko'pchilik iqtisodchilar uzoq muddatli aktivlarni ishlatish muddati 1 yildan ortiq bo'lgan aktivlar sifatida tasniflaydilar: uzoq muddatli kapital qo'yilmalar, nomoddiy aktivlar, asosiy vositalar, boshqa uzoq muddatli aktivlar. Bunday tarzda tasniflash buxgalteriya hisobi qoidalariga asoslanadi.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarida aktivlarni

tan olishda milliy standartlardan farq qiladi. Masalan buxgalteriya hisobining milliy standartida asosiy vosita sifatida aks ettiriladigan aktivlar xalqaro standartlarda turli element sifatida aks ettirilishi mumkin. Masalan, "Quyidagilar investitsion mulkka misoldir:

- (a) odatdagi xo'jalik faoliyati doirasida qisqa muddatda sotish uchun emas, balki uzoq muddat davomida kapitalning qiymati oshishi uchun egalik qilinadigan yer.
 - (b) kelgusida foydalanilish maqsadi aniqlanmagan egalikdagi yer. (Agarda tadbirkorlik subyekti yerdan mulk egasi-egallagan mulk sifatida foydalanishini yoki odatdagi xo'jalik faoliyati doirasida qisqa muddatda sotish uchun foydalanishini aniqlamagan bo'lsa, yer kapitalning qiymati oshishi maqsadida saqlanayotgan deb hisoblanadi.)
 - (v) tadbirkorlik subyekti tomonidan egalik qilinadigan (yoki moliyaviy ijara shartnomasi asosida tadbirkorlik subyekti tomonidan egalik qilinadigan) hamda bir yoki bir necha operativ ijara shartnomalari asosida ijaraga berilgan bino.
 - (g) band bo'lmagan, ammo bir yoki bir necha operativ ijara bo'yicha ijaraga berishga mo'ljallangan bino".
- Sotish uchun muljallangan bo'lsa, o'sha aktiv zaxira hislanadi. Agar ushbu aktiv korxona asosiy faoliyatida foydalanishi uchun mo'ljallansa, u asosiy vosita sifatida e'tirof etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amaldagi buxgalteriya balansining uzoq va joriy aktivlar qismini ham ilg'or xorijiy tajribalar hamda xalqaro standartlar asosida takomillashtirish taqozo etmoqda.

Hozirgi vaqtda jahon bozorida tabiiy-toza oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab kundan kunga ko'payib, bu dunyo mamlakatlari oldiga mavjud tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ilmiy asoslangan innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda tobora o'sib borayotgan ehtiyojni qondirish masalasini qo'yimoqda. Shu sababli ham jahon iqtisodiyotida cheklangan resurslar taqchilligi muammosi biologik aktivlardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Xalqaro hisob va hisobot amaliyotida "biologik aktivlar", investitsion mulk moliyaviy hisob va hisobotning muhim obyekti sifatida tan olinadi.

Biroq, hozirgi paytda hisob va hisobot tizimida qo'llanilayotgan hisobotlarda qishloq xo'jalik korxonalarining biologik aktivlari va investitsion mulk to'g'risidagi ma'lumotlari axborot foydalanuvchilarning talablariga to'liq javob beradi deb bo'lmaydi.

Bu esa, o'z navbatida, moliyaviy hisobotlarning ishonchli va ahamiyatli axborot berish borasidagi foydalilik (naflik) darajasini ma'lum darajada pasayishiga sabab bo'ladi. Xo'jalikni operatsion faoliyati va boshqaruv tizimi samaradorligini xolis auditorlar tomonidan baholashda ham ko'plab

qiyinchiliklarni tug'diradi.

Biologik aktivlar va investitsion mulk hisobini xalqaro standartlar talablariga moslashtirish, ular hisobiga doir rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan samarali foydalanilishiga erishish bu barcha mamlakatlar uchun hozirgi kunning eng muhim va dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Bizningcha, aktivlar hisobini xalqaro standartlar talabiga ko'ra yuritish uchun aktivlar hisobini amalga oshi- ruvchi ishchi schyotlar rejasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yuqorida (1-jadval)da mazkur schyotlarni namunaviy varianti tavsiya etildi:

Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda hisob va hisobotlarni xalqaro miqyosda muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega. Hozirda barcha mamlakatlarda qulay investitsion muhitni shakllantirish, iqtisodiyotning jahon standartlariga mos keladigan milliy standartlarini yaratish maqsadida buxgalteriya hisobining milliy standartlarini xalqaro standartlar talablariga moslashtirish, moliyaviy hisob va hisobotni xalqaro unifikatsiyasi, hisob va hisobotning muhim tarkibiy qismi hisoblangan biologik aktivlar, investitsion mulk hisobining hozirgi holati, tasnifi, ularni tan olish, baholash va hisobotlarda aks ettirishni takomillashtirish borasidagi ilmiy izlanishlar alohida o'ringa ega. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida biologik aktivlar va investitsion mulk hisobining konseptual asoslari, ularni tan olish va baholash hamda moliyaviy hisobotlarda aks ettirish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ma'lum yutuqlarga erishib kelingan. Biroq dunyo miqyosida biologik aktivlar va investitsion mulk hisobiga doir ilg'or tajribalar hamda bu boradagi xalqaro standartlar talablari jahon iqtisodiyotida o'z o'rnini topishga harakat qilayotgan mamlakatlarda to'liq joriy qilinishiga erishilgan emas. Respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi muhim o'rinni egallab, oxirgi yillarda bu sohaga ham xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilinishiga qaramasdan, ushbu biologik aktivlar hisobi va auditining xalqaro standartlar talablariga mos keladigan nazariy, tashkiliy va metodologik asoslari to'lig'icha yaratilgan deb bo'lmaydi. Jumladan, respublikamizda biologik aktivlar hisobiga doir milliy standartlar yaratilgan emas. Biologik aktivlarning hisobi 5-BHMS va 4-BHMSlar bilan tartibga solinadi.

Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining joriy qilinishi moliyaviy hisobotlardagi axborotlarning ishonchliliigi va obyektivligini oshirish bilan bir qatorda xorijiy investitsiyalarni mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarda hisob obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida, to'g'ri va to'liq shakllantirish hamda boshqa korxonalar bilan bo'ladigan hisob-kitoblarni

o'z vaqtida amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, korxonalarda kapital investitsiyalar hisobini zamon talablari asosida tako- millashtirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi.

Birinchidan, avvalambor, 21-son BHMSda nazarda tutilgan 0800-“Kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar” tizimi nomi va maqomini o'zgartirishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bizningcha, ushbu schyotni 0800-“Korxonani zamonaviylashtirish jarayonlari va ularga kiritilgan kapital investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar” deb nomlash to'g'ridir. Mazkur schyotning aynan shunday nomlanishi uning maqsad va maqomini to'g'ri ifoda etadi, deb o'ylaymiz. Chunki aynan shu nomdagi schyotning mavjudligi va uning yuritilishi korxonada yuz berayotgan yangilanishlarni, bir tomondan, muhim jarayon sifatida aks ettirishga, ikkinchi tomondan esa ularga kiritilgan kapital investitsiyalar hisobini yuritishga imkon beradi.

Ikkinchidan, fikrimizcha, zamonaviylashtirish jarayonlari va ularga kiritilgan kapital investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar tizimi tarkibiga kiruvchi schyotlar davlatimiz siyosatida belgilangan innovatsion jarayonlarning barcha yo'nalishlari, chunonchi, yangi obyektlar qurish, mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish va obodonlashtirish, zamonaviy asbob-uskunalar, texnika va texnologik liniyalar, biologik aktivlar va boshqa turdagi yangi asosiy vositalarni xarid qilish, shuningdek, mos ravishda ularga kiritilgan kapital investitsiyalarni bevosita aks ettirishga mo'ljallangan bo'lishi lozim. Aynan ushbu talabdan kelib chiqib, bizningcha, amaldagi 0800-“Kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar” tizimining tarkibi, maqomi va nomlanishi bo'yicha restrukturizatsiya qilish (o'zgartirish) maqsadga muvofiqdir. Korxonani zamonaviylashtirish jarayonlari va ularga kiritiladigan kapital investitsiyalar hisobi uchun biz tomonimizdan tavsiya etilayotgan barcha schyotlar maqomiga ko'ra aktiv, doimiy, balans schyotlar hisoblanadi, shuningdek, ularning har biriga aniq maqsad va vazifalar yuklatiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

- 1. Egamberdiyeva Salima Rayimovna, QarDTU dotsenti / Эгамбердиева Салима Раимовна, доцент КарГТУ / Egamberdieva Salima Raimovna, Associate Professor of KSTU**

► salimaegamberdiyeva147@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0000-5106-7166>

- 2. Samadova Marjona Feruzbek qizi QarDTU Buxgalteriya hisobi yo'nalishi 1 kurs talabasi / Самадова Маржона Ферузбек кизи, студентка 1 курса факультета бухгалтерского учета КарГТУ / Samadova Marjona Feruzbek qizi, 1st year student of the accounting faculty of KSTU**

► samadovamarjona7@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0000-1106-5144>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Robert C., Recket M. Information content of IFRS versus GAAP financial statements // Journal of financial reporting and accounting. ISSN 1985-2517. 12 March 2018.
- [2]. B. Boronov. Improvement of investment accounting in Uzbekistan. Volume 12 | Issue 6. 2020 June. Pages: 1069-1079. <https://www.jardcs.org/abstract.php?id=4967>
- [3]. Averchev I.A. MSFO. 1000 primerov primeneniY. / I. A. Averchev. – M.: Rid Grupp, 2011. – 992 s. (Polnoye rukovodstvo buxgaltera).
- [4]. Anthony, Robert Newton. Accounting principles / Robert N. Anthony, James S. Reece, D.B.A. – 7th edition, Irwin, 2001. 686 p.
- [5]. Libby Robert. Financial accounting / Robert Libby, Patricia A. Libby, Daniel G. Short. Irwin, Printed in USA, 2016. 752 p.
- [6]. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика: 17-е изд. - М.: «ИНФРА-М», 2009. -С. 107.)
- [7]. Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика. - М.: «Дело-ЛТД», 1995. -С. 127.)
- [8]. Шодмонов Ш. ва бошқалар. Иқтисодиёт назарияси.-.: «Молия», 2002. 37-б.)
- [9]. Бухгалтерский учет. / Под ред. Безруких П.С. -М.: «Бухгалтерский учет», 2002. -С. 527.)
- [10]. Нидлз Б., Андерсон Х., Колдуэл Д. Принципы бухгалтерского учета. / Под ред. Я.В.Соколова. -М.: «Финансы и статистика», 1994. -С. 24.